

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun

USLUBIY KO'RSATMA

TOSHKENT – 2015

Xashimova S.N., Tashxodjayeva M.D. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik” fanidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun uslubiy ko‘rsatma. – T.: ToshDTU , 2015. 42 b.

Uslubiy ko‘rsatmada “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik” fani bo‘yicha mavzularning qisqacha tasnifi, nazorat savollari va test topshiriqlari berilgan.

Toshkent davlat texnika universiteti o‘quv-uslubiy kengashi qaroriga muvofiq nashrga tavsiya etildi.

Taqrizchilar:

Boqiyeva I.A.- TMI dotsenti, i.f.n.;

Ibragimova S.A. - ToshDTU “Iqtisodiyot va marketing” kafedrasi dotsenti, i.f.n.

1 - AMALIY MASHG'ULOT

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan tavsiflanadi.

Shu jihatdan hozirgi kunda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Chunki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish masalasiga davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasi sifatida qaralmoqda.

Kichik biznes kapital taqchilligi sharoitida ko‘p mablag‘ talab etmaydigan xo‘jalik faoliyati sifatida resurslar aylanmasining yuqori suratlarini ta’minlaydi, iqtisodiyotni qayta qurish, iqtisodiy nobarqarorlik va resurslar cheklanganligi sharoitida iste’mol bozorini shakllantirish va uni to‘ldirish muammosini tez hamda tejamli tarzda hal etadi. Kichik korxonalar iste’mol talabining o‘zgarishiga darhol moslashadi va shu yo‘l bilan iste’mol bozoridagi zaruriy muvozanatni ta’minlaydi. Hozirgi paytda ushbu soha nafaqat iqtisodiyotning o‘sish sur’atlarini jadallashtirishda, balki mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo‘lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish masalalarini hal etishda ham yetakchi o‘rin tutmoqda. Oxirgi yillarda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi korxonalar soni yil sayin ortib borayotgani sohaning izchil rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Kichik biznes sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyati uning iqtisodiyotda raqobat muhitini ta’minlash, yirik korxonalar uchun mahsulot va xizmatlar yetkazib berish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va ikkilamchi bandlikni ta’minlash, bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish, ilmiy-texnik inqilobni jadallashtirish, resurslarni ishlab chiqarishga safarbar etish; soliq tushumlari hajmining o‘sishini ta’minlash, aholi daromadlari darajasini barqarorlashtirish kabi omillar bilan belgilanadi.

Mustaqillik yillarida kichik biznes subyektlarining mamlakatimizda yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatidagi natijalari salmoqli bo‘lib bormoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga davlat tomonidan katta e’tibor berilishi hamda qo‘llab-quvvatlanishi natijasida uning mamlakat

yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, 2000- yilda yalpi ichki mahsulotning qariyb 31 foizi iqtisodiyotning faol rivojlanib borayotgan ushbu sektori ulushiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2008- yilda bu ko‘rsatkich 48,2 foizni, 2009- yilda 50,1 foizni, 2010- yilda 52,5 foizni, 2014- yilda esa 56 foizni tashkil etdi yoki 2000- yilga nisbatan 23 foizga o‘sdi.

Albatta bu ko‘rsatkich rivojlangan davlatlarda, masalan AQSh da 75-82 foiz, Yaponiyada 81 foizni, Italiyada 74 foizni tashkil etadi. Respublikamiz kichik biznesning bunday ko‘rsatkichlarga erishishi tadbirkorlik faolligi orqali amalga oshadi.

Respublikamizning iqtisodiy taraqqiyoti, iqtisodiy mustaqilligi, xalqining faravon turmush darajasi, qolaversa mehnat resurslarining ish bilan bandlik darajasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivoji bilan bog‘liqdir. Bu holat esa korxonalarining iqtisodiy erkinligini rag‘batlantirish darajasining rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

Istiqborda iqtisodiyot tarmoqlarida ham o‘zgarishlar yuzaga keladi. Bu holat ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi asosida ro‘y beradi.

Umumiy sanoat mahsulotini ishlab chiqarishda istiqborda o‘zgarishlar sanoat sohasiga talab natijasida sodir bo‘ladi, shuningdek qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi kichik korxonalarining rivojlanish hisobiga bu soha yanada yuksaladi. Savdo aylanmasining to‘liq muvofiqlashuvi natijasida bu sohada ko‘rsatkich ulushi pasayishi sodir bo‘ladi.

Hududlarning mashinasozlik va metallga ishlov berish, yengil sanoat, ayniqsa, trikotaj, tikuvchilik buyumlari tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sohalarida kichik biznesning o‘rni va ulushi yetarli darajada emas. Vaholanki barcha sohada ishlab chiqarish faolligi tenglashsa, ijobjiy natijalarga erishamiz.

Istiqborda kutiladigan natijalar asosan kichik tadbirkorlikning faol rivojlanishi evaziga ro‘y beradi. Bu esa ular tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulot miqdorining o‘sish dinamikasini ta’minlaydi.

Hududlar bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish hajmining istiqborda o‘sib borish dinamikasini korxonalar miqdorining o‘sib borish holati bo‘yicha tahlil etsak, bu holat qo‘sishimcha yangi kichik korxonalarining tashkil etilishi hisobiga amalga oshadi.

Yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalangan hududlarda yalpi hududiy mahsulotning yuqori sur’atlar bilan o‘sishi ta’minlanadi. Jumladan, kichik korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish evaziga istiqborda ko‘zlangan natijalarga erishish ta’minlanadi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligi iqtisodiy faoliyat jarayonlari va uning natijalarini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlarda kichik biznes ulushining yuqori bo‘lishiga ham bog‘liq ekanligi shubhasizdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi bilan mamlakatimizda o‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirish vazifasini bevosita hal qilishga erishamiz. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik aholi bandligini ta’minlaydigan va uning asosiy daromad manbai bo‘lgan muhim sohaga aylanadi.

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

1. Bitta gapda berilgan savollarga javobni shakllantiring.

Tovar, bozor, ishlab chiqarish, tadbirkorlik tushunchalarining bog‘liqligini tushuntirib bering.

2. Iqtisodiyotni rivojlantirishdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ahamiyatini sxematik tarzda rasmsini chizib bering.

3. Quyidagi savollarga javob bering:

1. Tadbirkorlik faoliyati qanday rivojlanish tarixiga ega?

2. Horijiy mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyatini o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

3. Horijiy mamlakatlarda (Yaponiya, Fransiya, AQShlarida) tadbirkorlik faoliyatini qaysi shaklini rivojlanishi katta ahamiyatga ega va uning sababi nimadan iborat?

4. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi va mohiyati deganda nimani tushunasiz?

5. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga ta’sir etuvchi omillarni ta’kidlab uting.

6. Sizningcha, tadbirkorlik faoliyatiga yana qanday omillar ta’siri bo‘lishi mumkin?

7. “Biznes” va “tadbirkorlik” suzlarining iqtisodiy tushunchasi va ularning farki nimalardan iboratligini tushuntirib bering.

8. Hukumat tomonidan qanday qabul qilingan Qonunlar va Prezident Farmonlari asosida tadbirkorlikni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishiga qanday e’tibor berilmoqda?

Test topshiriqlari

1. Biznes – bu:

- A. tadbirkorlikning eng asosiy unsuridir;
- B. ruxsat etilgan, jamiyat a'zolariga naf keltiruvchi faoliyat bilan shug'ullanib, pul, daromad topishni bildiradi;
- C. shaxsiy boylik, foyda orttirishga qaratilgan ish;
- D. puldan pul keltirib chiqarishdir.

2. Tadbirkorlik – bu:

- A. qonun hujjatlariga muvofiq daromad olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat;
- B. bozor iqtisodiyotida xo'jalik yuritishning asosiy subyekti hisoblanadi;
- C. tadbir bilan, puxta o'ylab ish tutadigan kishi;
- D. yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) yo'li bilan tavakkal qilib, o'z mulkiy javobgarligi ostida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyati.

3. Biznesmen – bu:

- A. biznes bilan shug'ullanuvchi shaxs;
- B. biznes bilan shug'ullanuvchi tashkilot;
- C. yerni ijaraga berib, renta orqali pul topuvchi shaxs;
- D. pulni bankka qo'yib, foiz orqali pul topuvchi shaxs.

4. Tadbirkor – bu:

- A. yuridik shaxs sifatida doimiy asosda tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi shaxs;
- B. yuridik shaxs bo'lmasdan doimiy asosda tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs;
- C. tadbirkorlik bilan puxta o'ylab ish qiladigan kishi;
- D. javoblarning hammasi to'g'ri.

5. Biznes qilishdan maqsad:

- A. foyda olish va uni muttasil oshirib borishdir;

- B. xarajatdan ko‘ra ko‘proq daromad olishdir;
- C. biznesni rivojlantirish va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish;
- D. A va B javoblar to‘g‘ri.

TADBIRKORLAR UCHUN ESLATMA

Tadbirkorlarga xos xususiyatlар quyidagilardan iborat:

1. Shug‘ullanayotgan soha bo‘yicha ilm, bilimga egaligi.
2. Tavakkalchilikka asoslangan qarorlar qabul qilish bo‘yicha tashabbuskorlik qobiliyati.
3. Iqtisodiy jarayonlarni chuqur fikrlay olish.
4. Qonunlarga itoatkorligi.
5. Innovatsiyachilikning faolligi.
6. Maqsad sari intiluvchanlik.
7. Tashkilotchilik.
8. Tejamkor bo‘lishi.
9. O‘z so‘zining ustidan chiqish.
10. Ruhiy poklik va halolligi.
11. O‘z jamoasi uchun kurashuvchanlik.

2 - AMALIY MASHG‘ULOT

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINING TURLARI VA SHAKLLARI

O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-mayda qabul qilingan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida «Tadbirkorlik faoliyati» tushunchasiga quyidagicha ta’rif beriladi: “Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat”.

1-rasmda kichik biznes, tadbirkorlik subyektlari tarkibi keltirilgan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar	<ul style="list-style-type: none">• Yakka tadbirkor;• " Oilaviy tadbirkor;• " Oddiy shirkat;• " Dehqon xo'jaligi (yuridik shaxs tashkil etmasdan)
Mikro-firmalar	<ul style="list-style-type: none">• Band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan ishlab chiqarish tarmoqlarida 20 kishi;• "Xizmat ko'rsatish sohasidagi va boshqa noishlab ishlab chiqarish tarmoqlarida 10 kishi;• "Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlarida 25 kishi
Kichik korxonalar	<ul style="list-style-type: none">• Band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan;• "Yengil va oziq-ovqat sanoati, hunarmandchilik sanoatida 100 kishi• "Mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i energetika sohasida 50 kishi;• "Fan, ilmiy xizmat ko'rsatish sohalari (savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa noishlab chiqarish sohalari)da 25 kishi

1-rasm. Kichik biznes, tadbirkorlik subyektlari tarkibi.

Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari doirasiga kimlar kiradi?

Tadbirkorlik subyektlarining majburiyatları.

1. O'zlari tuzgan shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarishlari.
2. Yollash asosida jalb etilgan xodimlar bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilishlari.
3. Xavfsizlik ekologiya sanitariya, gigiyena va mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etishlari.
4. Realizatsiya qilinadigan tovarlar uchun qonun hujjatlariiga muvofiq sertifikatlariga ega bo'lishlari.
5. Pochta manzili va boshqa rikvizitlari o'zgarganligi to'g'risida tegishli davlat organlarini o'z vaqtida xabardor qilishlari.
6. Buxgalteriya, tezkor va statistika hisobini qonun hujjatlari talablariga muvofiq yuritishlari.

Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biridir.

Bunda kichik tadbirkorlikning o‘ziga xos quyidagi xususiyatlariga tayanilmoqda:

- bozordagi talabga tez moslasha borib, sifatli mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati;
 - nisbatan qisqa muddatlarda aholi ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan tovar va xizmatlarga bo‘lgan talabni qondira olishi;
 - dastlabki sarmoya hajmining nisbatan kamligi;
 - tez orada yangi ishchi o‘rinlari barpo etish va bandlik muammosini hal etishga ko‘maklashish imkoniyati;
 - biznes egasi (tadbirkor)ning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdagi bevosita ishtiroki va boshqalar.
- kichik tadbirkorlik – aholining talay qismi uchun mehnatini qo‘llaydigan jabha va daromad manbai, yetarli malaka va tajriba bo‘lmagan, egiluvchan jadvalli ish kunini istagan aksariyat mehnat resurslarini mashg‘ul etuvchi mehnat bozorining eng moslashuvchan qismi. Ayollar, ilk bor ish qidirayotgan yoshlar, ma'lumoti va mehnat tajribasi yuqori darajada bo‘lmagan shaxslar ko‘pincha faqat shu yerdan ish topishlari mumkin. Bu jabbada mashg‘ul kishilarning aksariyat qismi uchungina emas, balki ularning oila a'zolari uchun ham asosiy daromad manbai bo‘lishi kichik biznes milliy farovonlikning o‘sishi uchun muhim omilga aylanganidan dalolat beradi;
- kichik tadbirkorlik aholi orasida ish yuritish va tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, uning bozor munosabatlariga moslashganlik darajasini oshirishda potensial samarali vositadir. U fuqarolarga nafaqat o‘z ishchi kuchi, balki o‘z mulki, jumladan, ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mulk egasi bo‘lishiga imkon yaratib, o‘rta sinf-jamiyatning progressiv taraqqiyotini ta'minlashga qodir, demokratiya va ijtimoiy barqarorlikdan manfaatdor ijtimoiy qatlamning shakllanishi uchun asos yaratadi;
- kichik tadbirkorlik butun iqtisodiyotning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. U iste'mol talabining o‘zgarishlariga hammadan tez moslashadi, iqtisodiy vaziyatning tebranishlariga muvofiq tarzda o‘z faoliyati ixtisosini tez va nisbatan asoratsiz o‘zgartira oladi;
- kichik tadbirkorlik iqtisodiyotning hududiy tuzilmasini yaxshilaydi.
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bir yo‘nalishi yakka tartibdagi tadbirkorlik hisoblanadi. Mazkur tadbirkorlik jismoniy shaxs maqomiga ega bo‘lgan holda o‘z nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan shu-

g‘ullanish imkonini yaratadi. U ma’lum huquq va majburiyatlargacha ham ega. Jismoniy shaxs o‘z tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bitimlar tuzadi.

Ushbu jarayonda, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida harakat qilayotganini aniq ko‘rsatishi kerak. Shuni alohida ta’kidlash joizki, yakka tartibdagi tadbirkor ham boshqa subyektlar singari o‘z majburiyatları bo‘yicha zimmasidagi javobgarlikdan ozod etilmaydi. Bularning faoliyati ham to‘liq qonunlar va boshqa me’yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikni amalga oshirish uchun o‘zining mulki bo‘lishi kerak. Agar mulk oilaviy bo‘lib, er-xotindan biri shunday tadbirkorlik bilan shug‘ullansa, er-xotinning umumiyligini birlashtirishda mol-mulkidan foydalaniladigan hollarda amalga oshiriladi. Agar qonunda, nikoh shartnomasida yoxud er-xotin o‘rtasidagi o‘zga kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, arning (xotinning) roziligi talab qilinadi. Barcha hollarda mulk egaligi nodavlat xarakterga ega bo‘ladi. Bunday tavdbirkorlar ham zarur hollarda o‘rnataligan tartibda tijoratbanklaridan kredit olishi kabi bir qancha huquqlarga ega.

Ushbu tadbirkorlik ma’lum darajada mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida o‘z o‘rniga ega. Shu bois mazkur subyektning faoliyati bilan bog‘liq bir qancha normalar O‘zbekiston respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi (Yangi tahrirda) Qonunida belgilab qo‘yilgan. Xususan, yakka tartibdagi tadbirkorlik tushunchasining ta’rifi ham mazkur Qonunda keltirilgan. Unda e’tirof etilishicha : “Yakka tartibdagi tadbirkorlik deyilganda, yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan mustaqil, xodimlarni yollash huquqisiz, mulk huquqi asosida o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo‘l qo‘yadigan o‘zga ashyoviy huquq asosida amalga oshirilishi tushuniladi”.

Ammo O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 16-mayda imzolangan “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minalash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida 2015-yilning 1-iyulidan yakka tartibdagi tadbirkorlarga, faoliyatidan kelib chiqqan holda, har bir yollangan ishchi uchun byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorda sug‘urta badali va yakka tartibdagi ish beruvchi tadbirkor uchun belgilangan soliq stavkasining 30 foizi miqdorida soliq to‘lash sharti bilan bir nafardan uch nafargacha ishchini yollash huquqi beriladi.

Amaldagi tartib bo‘yicha tadbirkorlik bilan bir vaqtning o‘zida birqancha kishilar shug‘ullanadigan bo‘lsa, bunday jismoniy shaxslar yuridik shaxs tashkil etmagan holda birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradi. Bunday tadbirkorlikni oilaviy tadbirkorlik, oddiy shirkat va dehqon xo‘jaligi shakllarida amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Oilaviy tadbirkorlikning amalga oshirilishi, oddiy shirkat va dehqon xo‘jaligi tuzilishi, faoliyat ko‘satishi hamda faoliyatining tugatilishi bilan bog‘liq munosabatlar amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Hozirgi kunda barcha yo‘nalishlar bo‘yicha qonunlar qabul qilingan va amalda qo‘llanilmoqda

Jumladan, 2012-yilning 8-martida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun Oliy majlisning Senati tomonidan 2012-yilning 23-martida ma’qullandi. Mazkur soxani , ya’ni oilaviy tadbirkorlikni tashkil qilish, faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha “Oilaviy korxona iqtisodiyoti” nomli maxsus monografiya tayyorlandi va nashrdan chiqarildi. 1998-yilning 30-aprelida O‘zbekiston Respublikasining “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingan edi. Hozircha unga bir qancha o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritilib, takomillashtirildi.

Qonunda tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquq va majburiyatları ham o‘z ifodasini topgan. Tadbirkorlik subyektlari Qonunda e’tirof etilishimcha :

- “yuridik shaxs bo‘lgan boshqa tadbirkorlik subyektlarining muasislari(ishtirokchilari) bo‘lishiga;
- o‘z faoliyati yo‘nalishlarini, tovarlar(ishlar xizmatlar) yetkazib beruvchilarni va o‘z tovarlarining (ishlarining, xizmatlarining) iste’molchilarini mustaqil ravishda tanlashga;
- o‘z tovarlarni (ishlarini, xizmatlarini), ishlab chiqarish chiqindilarini bozor konyunkturasidan kelib chiqib, mustaqil ravishda belgilanadigan narxlar va tariflar bo‘yicha yoki shartnoma asosida realizatsiya qilishga , qonun xujjalarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

kreditlar olishga, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag‘larini hamda o‘zga mol-mulkini shartnoma shartlari asosida jalb etishga , shu jumladan binolarni, inshoatlarni , uskunalarni va o‘zga mol-

mulkni olishga va (yoki) tekin, ijaraga (lizingga) olishga hamda ularni tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga yo‘naltirishga xaqli.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Bu huquqlar ularning ustavida o‘z ifodasini topmog‘i lozim. Agar ular litsenziyalanadigan faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘lsa, ushbu litsenziyada ko‘rsatilgan holatlar inobatga olinadi.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlariga bir qancha majburiyatlar ham yuklatilgan. Bularда qonunda belgilangan quyidagi majburiyatlar:

“soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashi;

- mehnatni muxofaza qilish hamda xavfsizlik texnikasi, ekologiya, sanitariya va gigiyena sohasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

- realizatsiya qilinadigan mahsulot va xizmatlar uchun sertifikatlarga ega bo‘lishi;

- buxgalteriya, tezkor va statistika hisobini qonun hujjatlari talablariga muvofiq yuritishi” kabi majburiyatlarni kiritish mumkin.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin. Bular ham tegishli me’yoriy hujjatlar va o‘zlarining hamkorlari bilan tuzilgan shartnomalarda o‘z ifodasini topadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mamlakatimiz iqtisodiyotida yangi soxa bo‘lishiga qaramasdan uning ulushi mamlakat iqtisodiyotida ham oshib bomoqda. Buning natijasida aholining yangi qatlami – o‘rta sinf vakillari shakllanmoqda. Bular jamiyat taraqqiyotida, uning barqarorligini asrashda xal kiluvchi rlni o‘ynaydi. Eng muhimi, aholining hayot darajasi, yashash sifati oshib boradi.

Tadbirkorlik subyektlari o‘z faoliyatlarini qonun doirasida erkin tasarruf etadi. Ular o‘z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya etish maqsadida notijorat tashkilotlar bo‘lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashish mumkin. Mazkur masalalar amaldagi tartib–qoidalarga, qonunda ko‘zda tutilgan me’yorlarga zid bo‘lmasligi kerak.

Bu quyidagilarda namoyon bo‘ladi: birinchidan, ularning faoliyati uchun tegishli sharoitning yaxshilanishi bo‘lsa, ikkinchidan, moliyaviy mablag‘larning yetarlilik darajasi ham shunga mos bo‘ladi. Uchinchidan jur’t qilib biznesga kirishganlar ikkilanmasdan faoliyatini boshlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Bunga asosiy sabab, mamlakatimizda tadbirkorlik muhitining yaratilishi ustivor vazifa sifatida belgilanishi bilan bog‘liqdir.

Yakka tartibdagи tadbirkorlik sube'ktlari bir qancha ijobiy jixatlarga ega. Bular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o‘z-o‘zini ish bilan ta'minlab, o‘zining farovonligini oshirishga erishadi;
- soliq to‘lovi orqali davlat xazinasiga (davlat va maxalliy byudjetlarning shakllanishiga) ham hissa qo‘shadi;
- o‘zining faoliyati natijasida jamiyatning tovar va xizmatlarga bo‘lgan extiyojini qondirish imkonini beradi;
- mamlakatimizda tadbirkorlik muhitining shakllanishiga xizmat qiladi;
- jamiyat talabiga, bozor munosabatlarining takomillashuviga tez moslashishi ko‘nikmasiga ega bo‘ladi;
- ko‘p bolali ayollarning va mexnat qobiliyati cheklangan insonlarning o‘z uyida ish bilan bandligini ta’minlaydi;
- ko‘plari milliy hunarmandchilik va boshqa milliy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq an'analarni saqlab qolish va rivojlantirish imkonini beradi.

Yakka tartibdagи tadbirkor subyektlarining yuqorida keltirilgan afzalliklari mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy hayotida tegishli o‘rin va ahamiyatga ega ekanligidan dalolat berdai.

Mamlakatimizda biznesni tashkil qilishning ushbu shakli biznesni yuritishda yuzaga kelgan milliy an'analarni ziga, xo‘jalik yuritish faoliyatining mavjud holatiga to‘la mos keladi deb alovida ta’kidlangan. Mazkur konsepsiya belgilangan vazifalardan kelib chiqib, “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonun 2012-yil 16-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilindi va 23-martda Senat tomonidan ma’qullandi.

Shunday qilib, oilaviy korxona deb ataladigan xo‘jalik faoliyatining yangi tashkiliy huquqiy shakli joriy etildi. Ularning faoliyat soxasi belgilanib, oilaviy ishtirokchilariga aniq ta’riflar berildi. Buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish tartibi soddalashtirildi.

Oilaviy tadbirdorlik oila a’zolari tomonidan tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir. U yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan xalda amalga oshirilishi mumkin. Yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshiriladigan oilaviy tadbirdorlikning tashkiliy – huquqiy shakli “Oilaviy korxona”dir. U o‘z mulkida aloxida mol-mulkka ega bo‘lishi, o‘z nomidan mulkiy va nomulkiy huquqlarini olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Fonunda oilaviy korxona ishtirokchilarining soni ikki kishidan kam bo‘lmasligi belgilangan. Uning ta’sis hujjati “Ta’sis shartnomasi”dir. Oilaviy korxonaning ustav fondi eng kam ish xaqqining o’n baravaridan kam bo‘lmasligi belgilangan.

Qonunda oilaviy korxona ishtirokchilari kimlar bo‘lishi mumkinligi aniq ko‘rsatildi. Jumladan, oila boshlig‘i, uning xotini (eri), bolalari va nabiralari, ota-onasi, mexnatga layoqatli yoshga to‘lgan boshqa qarindoshlari, tug‘ishgan hamda o‘gay aka-uka va opa-singillari, ularning erlari (xotinlari) hamda bolalari, tog‘a va amaki, amma va holalari ishtirokchi bo‘lishi mumkin. Shuningdek, bir oilaviy korxona ishtirokchisi bir vaqtning o‘zida boshqa oilaviy korxonaning ishtirokchisi bo‘lishlari mumkin emasligi qat’iy belgilab qo‘yildi.

Bundan tashqari, oilaviy korxona boshlig‘i yoki ishtirokchilar tarkibi o‘zgargan taqdirda, er va xotin o‘rtasidagi nikoh bekor qilingan yoki oilaviy korxona ishtirokchisi vafot etgan va bu holatlar oilaviy korxona balansiga berilgan ishtirokchilar mol-mulki ro‘yxatida o‘zgarishlarga sabab bo‘lsa, ta’sis shartnomasiga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritiladi. Bunda oilaviy korxonani qayta davlat ro‘yxatidan o‘tkazish talab qilinmaydi. Bu esa davlatimiz tomonidan bu faoliyat ishtirokchilariga yana bir qulaylik yaratilganligidan darak beradi.

Oilaviy korxonalar turarjoydan bir vaqtning o‘zida istiqomat qilgan holda tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, ximatlar ko‘rsatish) uchun foydalangan taqdirda kommunal xizmatlar (elektr energiyasi gaz, suv, issiqlik ta’minoti va kanalizatsiya) haqini to‘lash aholi uchun nazarda

tutilgan ta'riflar bo'yicha umumiylashtirish asoslarda amalga oshiriladi. tashkil qilishning

Dehqon xo'jaligi ichki iste'mol va mayda tovar qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish bilan bog'liq tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi Qonunining 1-moddasida dehqon xo'jaligiga quyidagicha ta'rif berilgan: "**Dehqon xo'jaligi oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshligiga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi**".

Dehqon xo'jaligining asosiy vazifasi qishloq aholisini foydali mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish orqali ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanishga erishish, shu asosda eng kam sarf-xarajat birligi evaziga mahsulot yetishtirishni har tomonlama ko'paytirishdan iborat. Shuningdek, yer resurslaridan unumli foydalanish, mamlakat aholisining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirishda, o'zi joylashgan hududning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda ishtirok etish kabi bir qator vazifalarni yechishga ham dehqon xo'jaliklari o'z hissalarini qo'shishlari lozim.

Dehqon xo'jaligi qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik shakllaridan biri sifatida bir qator afzalliklarga ega:

- ishlab chiqarish hajmining kichikligi bozordagi talab va taklif nisbatiga tez moslashish hamda ko'p mablag' sarflamay, o'z faoliyati yo'nalishlarini qayta shakllantirish imkonini beradi;

- oila mehnatiga tayanish uy bekalari, qariyalar va bolalar mehnatidan ham unumli foydalanish hamda asrlar davomida shakllanib kelgan dehqonchilik madaniyatini avloddan-avlodga o'tkazib borishga sharoit yaratadi;

- xususiy mulk egaligi hamda yerning meros qilib qoldirish huquqi bilan umrbod egalikka berilishi mulkdan oqilona foydalanishga yo'l ochadi.

Dehqon xo'jaligi ichki iste'mol va mayda tovar qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish bilan bog'liq hamda xo'jalik a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslangan tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi.

Dehqon xo'jaligini davlat ro'yxatiga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 20-avgustdagি

“Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro‘yxatdan o‘tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi 357- qarori va shu qaror bilan tasdiqlangan “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, hisobga qo‘yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risida NIZOM”ga muvofiq amalga oshiriladi.

Dehqon xo‘jaligi o‘zi yetishtirayotgan mahsulotni realizatsiya qilish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan ixtiyoriylik asosida xo‘jalik shartnomalari tuzish huquqiga ega. Dehqon xo‘jaligi o‘zi yetishtirayotgan mahsulotga bozordagi talab va taklif nisbatidan kelib chiqib mustaqil ravishda baho belgilaydi.

Dehqon xo‘jaliklari ixtiyoriylik asosida, shu jumladan, ulushli (pay) asosda mahsulot yegishtirish, xarid qilish, uni qayta ishlash va sotish, moddiy-texnika ta'minoti, qurilish, texnikaviy, suv xo‘jaligi, veterinariya, agrokimyo, maslahat berish yo‘sindagi va boshqa xil xizmat ko‘rsatish bo‘yicha kooperativlarga (shirkatlarga), jamiyatlarga, ittifoqlarga, uyushmalarga va boshqa birlashmalarga birlashish, kirish huquqiga ega.

Fermer xo‘jaligi. Keyingi yillarda qishloq xo‘jaligida tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan tadbirkorlik shakllaridan biri fermer xo‘jaliklaridir. O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunining 1-bandida “Fermer xo‘jaligi o‘ziga uzoq muddatli ijara berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqorishi bilan shug‘ullanuvchi fermer xo‘jaligi a’zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo‘jalik yuritish subyektidir”, - deb belgilab berilgan.

Fermer xo‘jaligi uni tuzayotgan a’zolar xohishiga ko‘ra, ixtiyoriy tashkil etilib, o‘z ishlab chiqarishini belgilangan qonunchilik doirasida yuqori foyda olishni ko‘zlab tashkil etadi.

Fermer xo‘jaligi qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yuritishning shakllaridan biri sifatida o‘ziga xos bo‘lgan ijtimoiy-psixologik, tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy xususiyatlarga ega bo‘lib, buni quyidagi rasmda yaqqolroq ko‘rish mumkin (1-jadval).

Fermer xo‘jaligining xususiyatlari

1.	Ijtimoiy-psixologik jihatdan	Jamiyatning boshlang‘ich bo‘g‘ini - oila va unga xos bo‘lgan ahloqiy-tarbiyaviy qadriyatlarga hamda shaxsiy manfaatdorlik, xususiy tashabbuskorlik va tadbirkorlik erkinligiga tayanuvchi aholining ijtimoiy qatlami.
2.	Tashkiliy-huquqiy jihatdan	Yuridik shaxs maqomiga (o‘z balansi, hisob raqami, muhri va boshqalar) ega bo‘lishi shart
3.	Mehnat munosabatlari jihatidan	Xo‘jalikda a’zolar mehnati bilan birgalikda yollanma mehnatdan foydalanish mumkin.
4.	Ishlab chiqarish yo‘nalishi jihatidan	Ishlab chiqarish qisman ichki iste’molga va asosan bozorga yo‘naltirilgan tovar xo‘jaligi.
5.	Mulkiy munosabatlar jihatidan	<ul style="list-style-type: none"> - ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilik; yer maydoni uzoq muddatli ijaraga (eng kamida 10 yildan uzog‘i bilan 50 yilgacha) beriladi, ijara muddatida ijara huquqini meros qilib qoldirish mumkin.
6.	Xo‘jalik yuritish uchun ajratiladigan yer maydoni hajmi jihatidan	<p>Xo‘jalik yuritish uchun ajratiladigan yer maydoni hajmining quyi chegarasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - g‘alla va paxta yetishtirishga ixtisoslashganda kamida 10 hektar; - bog‘dorchilik, uzumchilik va sabzavot-polizchilikda kamida 1 hektar; <p>chorvachilikda kamida shartli 30 bosh chorva moli bo‘lgan taqdirda har bir shartli bosh mol uchun viloyatlar va hududlarga qarab 0,3 –0,45 hektardan (lalmi yerlarda 2 hektar).</p>

Fermer xo‘jaligining vujudga kelishi va shakllanishida uning tashkiliy-iqtisodiy asoslari muhim ahamiyat kasb etadi. Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, femer xo‘jaligi tashkiliy-huquqiy jihatdan:

- xo‘jalik a‘zolarning birgalikdagi faoliyatiga asoslangan;
 - o‘ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi;
 - o‘z nomi o‘yib yozilgan hamda gerb tasviri tushirilgan muhrga hamda shtampga ega, yuridik shaxs maqomidagi;
 - bank muassasalarida hisob-kitob va boshqa hisob varaqalar ochadigan;
 - tegishli davlat organlarida ruyxatdan o‘tgan;
 - boshqa korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar hamda muassasalar bilan o‘zaro teng huquqli munosabatlarga kirishuvchi mustaqil xo‘jalik yuritish subyekti hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-martdagи “Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi farmonida fermer xo‘jaliklarini shakllantirishning quyidagi prinsipial qoidalari belgilab berilgan:

- fermer xo‘jaliklari qoida tariqasida, tugatiladigan, zarar bilan ishlayotgan, past rentabelli va istiqbolsiz shirkatlar negizida barpo etiladi;
- fermer xo‘jaligi yuridik shaxs sifatida, asosan xususiy korxona shaklida, keyinchalik ular turli shakldagi kooperatsiyalarga birlashish huquqi bilan barpo qilinadi;
- yer maydonlari fermerlarga tanlov asosida ellik yilgacha uzoq muddatli asosda, ijara muddati davomida meros qilib qoldirish huquqi bilan ijaraga foydalanish uchun beriladi;
- fermer xo‘jaliklariga beriladigan yer maydonlari shirkat xo‘jaliklarining balansidan chiqariladi;
- yetishtiriladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berish hamda moddiy-texnika resurslari va xizmatlarni olish uchun shartnomalarni faqat fermer xo‘jaliklarining o‘zlari tayyorlov, qayta ishlash hamda xizmat ko‘rsatish korxonalari va tashkilotlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzadilar.

Fermer xo‘jaliklarini tuzishning quyidagi shakllari mavjud:

1. Maxsus respublika fondidagi, mehnat resurslari yetarli bo‘lmagan va yangi sug‘oriladigan mavzelardagi yerlar hamda zaxira yerlarda maxsus davlat yer fondini shakllantirish orqali fermer xo‘jaliklarini tuzish.

2. Qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkatlari)ning yerlarida a’zolarining ixtiyoriylik asosida kooperativ (shirkat)dan chiqib, fermer xo‘jaligi tuzish uchun bergen arizasiga binoan umumiy majlisning qarori bilan ajratiladigan yerlarda fermer xo‘jaliklari tuzish.

3. Surunkasiga zarar ko‘rib kelayotgan istiqbolsiz yoki past rentabelli xo‘jaliklarni hokimliklar tavsiyasiga ko‘ra, Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida qayta tashkil etib, to‘liq fermer xo‘jaliklariga (uyushmaga a’zo bo‘lgan holda) aylantirish.

Qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkat xo‘jaliklari)dan kooperativ (shirkat) a’zolarining mustaqil fermer xo‘jaligi tuzish maqsadida chiqishi tartibi “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risi”dagi qonunning 11-bandida belgilab berilgan.

Qonunga muvofiq qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkat xo‘jaliklari) tarkibidan chiqish va mustaqil fermer xo‘jaligi yuritish istagida bo‘lgan shaxslar kooperativ (shirkat) ustaviga binoan o‘zlariga tegishli mulkiy pay qiymatini hamda daromad (foyda)dan miqdori kooperativ (shirkat) a’zosining mehnat ishtirokini inobatga olgan holda aniqlanadigan ulushni olishga haqlidir.

Fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishning uchinchi yo‘nalishi surunkali zarar keltirib ishlayotgan va past rentabelli qishloq xo‘jaligi korxonalarini qayta tashkil etib, to‘liq fermer xo‘jaliklariga aylantirishdir.

Respublikada surunkali zarar keltirib ishlayotgan istiqbolsiz va past rentabelli xo‘jaliklarni sanatsiyalash amaliyotidan voz kechib, ularni bosqichma-bosqich fermer xo‘jaliklariga aylantirishga istiqbolli yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Fermer xo‘jaligini davlat ro‘yxatiga olish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 20-avgustdaggi “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro‘yxatdan o‘tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi 357-qarori va shu qaror bilan tasdiqlangan “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, hisobga qo‘yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risida Nizom”ga muvofiq amalga oshiriladi.

Fermer xo‘jaligi faoliyatining iqtisodiy asosi mulkchilik munosabatlariga borib taqaladi. Fermer xo‘jaligi o‘z mol-mulkiga (yerdan

tashqari), yetishtirgan mahsulotiga hamda oladigan daromadlariga mutlaq egalik huquqiga ega.

Fermer xo‘jaligi mol-mulkining shakllanish manbalari birinchi navbatda xo‘jalik a’zolarining pul mablag‘lari va moddiy vositalaridan tashkil topadi. Shuningdek, ishlab chiqarish natijasida yetishtirilgan mahsulotlar, olingan daromadlar, kreditlar, turli xayriya va ehsonlar hamda qonun bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar xo‘jalik mol-mulkini shakllantirish manbalari sifatida chiqishi mumkin.

Fermer xo‘jaligining mulki umumiy (ulushli yoki birgalikdagi) egalik asosida uning a’zolariga tegishli bo‘ladi. A’zolarning istagiga ko‘ra, xo‘jalik har bir a’zosining mulkdagi ulushi pay asosida belgilab qo‘yilishi mumkin. Mol-mulkdan foydalanish a’zolarning kelishuviga muvofiq amalga oshiriladi.

Fermer xo‘jaligi yuritish uchun fuqarolarga yer uchastkalari ellik yilgacha bo‘lgan, lekin o‘n yildan kam bo‘lmagan muddatga ijaraga beriladi. Fermer xo‘jaligiga uzoq muddatga ijaraga berilgan yer maydonini ijara muddati davomida meros qilib qoldirish huquqi berilgan.

Fermer xo‘jaligida ishlab chiqarish asosan xo‘jalik a’zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Shu bilan birga, qonunga binoan fermer xo‘jaligida ishlarni bajarishga o‘zga shaxslar mehnat shartnomasi asosida vaqtincha jalb etilishi mumkin.

Fermer xo‘jaliklarida mehnat qilayotgan shaxslar (shu jumladan, yollanib ishlayotganlar ham) qonun yo‘li bilan ijtimoiy himoyalangan, ya’ni ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ijtimoiy sug‘urtasidan o‘tkazilishi lozim hamda qarilik yoki nogironlik nafaqasi olishga, shuningdek, vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo‘qotgan takdirda ham nafaqa olishga haqlidir.

Mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan shaxslar mehnatiga haq to‘lash tomonlarning kelishuviga binoan belgilanib, pul bilan yoki naturada amalga oshirilishi mumkin. Ammo uning minimal miqdori eng kam ish haqidan past bo‘lmasligi zarur va xo‘jalik faoliyatining natijalaridan qat’iy nazar birinchi navbatda to‘lanishi kerak.

MUSTAQIL ISHLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

Dehqon xo‘jaligi tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy jihatdan o‘ziga xos xususiyatlariga asosan to‘lg‘azing.

2-jadval

Dehqon xo‘jaligining xususiyatlari

1.	Ijtimoiy-psixologik jihatdan	Jamiyatning boshlag‘ich bo‘g‘ini - oila va unga xos bo‘lgan qadriyatlarga hamda shaxsiy manfaatdorlik, xususiy tashabbuskorlik va tadbirkorlik erkinligiga tayanuvchi aholining ijtimoiy qatlami.
2.	Tashkiliy-huquqiy jihatdan	A’zolarning istagiga ko‘ra: yuridik shaxs maqomida; yuridik shaxs tashkil etmagan holda faoliyat yurituvchi tadbirkorlik shakllaridan biri.
3.	Mehnat munosabatlari jihatidan	
4.	Ishlab chiqarish yo‘nalishi jihatidan	
5.	Mulkiy munosabatlar jihatidan	
6.	Xo‘jalik yuritish uchun ajratiladigan yer maydoni hajmi jihatidan	

Test topshiriqlari

1. Yakka tadbirkorlik bu shunday faoliyatki uning egasi butun daromad va tavakkalchilikni:

- A. to‘la o‘z zimmasiga oluvchi bir kishidir
- B. to‘la o‘z zimmasiga oluvchi bir oiladir

C. to‘la o‘z zimmasiga oluvchi bir necha oiladir

D. hamma javoblar to‘g‘ri

2. Xususiy tadbirkorlikning yakka tartibda faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlikdan farqi shundaki, bu yerda faoliyat ko‘rsatuvchilar o‘z faoliyatini:

A. yollanma ishchi kuchi yordamida olib boradi

B. yollanma ishchi kuchisiz olib boradi

C. yollanma ishchi kuchini qisman jalb qilish yordamida olib boradi

D. bir necha oila kuchi yordamida olib boradi

3. Kichik firmalar:

A. kooperatsiyalashgan va ixtisoslashgan qismlar va detallar ishlab chiqarish asosida faoliyat ko‘rsatadi

B. asosan iste'mol buyumlari ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi

C. umumiy texnologik va texnik infratuzilma sohasida faoliyat ko‘rsatadi

D. asosan savdo – sotiq bilan shug‘ullanadi

4. Yopiq turdagи aksiyadorlik jamiyati – bu:

A. aksiyalari nomlangan va ular faqat aksioner jamiyati ta’sischilari o‘rtasida taqsimlangan jamiyatdir

B. aksiyadorlari o‘zlariga tegishli aksiyalari boshqa aksiyadorlarning roziligesiz erkin tasarruf qila oladigan jamiyatdir

C. O‘zbekiston Respublikasida joylashgan, aksiyalarining yoki nizom jamg‘armalarining 100 % ini xorijiy investitsiyalar tashkil etgan korxonalar

D. muxandislik maslahat xizmatlarini tijoratchilik qoidalariga asoslangan holda amalga oshiradigan korxonalardir

5. Yirik firmalar:

- A. kooperatsiyalashgan va ixtisoslashgan qismlar va detallar ishlab chiqarish asosida faoliyat ko‘rsatadi
- B. asosan iste’mol buyumlari ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi
- C. umumiyltexnologik va texnik infratuzilma sohasida faoliyat ko‘rsatadi
- D. xalqaro mehnat taqsimoti bilan shug‘ullanadi

6. Aksiyadorlik jamiyati – bu:

- A. jismoniy shaxslar kapitallarining birlashuvi bo‘libu aksiyalar chiqarish yo‘li bilan tashkil etiladi
- B. mulk egalari tomonidan bir nechta mustaqil aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini nazorat qilishi maqsadida tashkil etilgan xissadorlik jamiyatidir
- C. davlat mulki va uning nazorati ostida ishlovchi korxona
- D. yuridik shaxslar kapitallarining birlashuvi bo‘lib u aksiyalar chiqarish yo‘li bilan tashkil etiladi

TADBIRKORLAR UCHUN ESLATMA

“Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risidagi Qonunning 29-moddasida oilaviy korxonaga bank xizmati ko‘rsatish qonun hujjatlariga muvofiq bank bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, agar biznes reja asosida oilaviy tadbirkorlik ishtirokchilar tijorat banklariga murojaat qilishsa, belgilangan tartibda oilaviy korxonaning milliy va xorijiy valyutadagi hisobvaraqlari ochiladi hamda ularga xizmat ko‘rsatiladi. Eslatib o‘tish kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 24-avgustdagisi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga binoan hisobvarakni ochishda hak undirish bekor qilingan. E’tibor qilgan bo‘lsangiz , bu Farmon qabul qilinguncha esa barcha xo‘jalik yurituvchi subyekti uchun hisobvaraqlari ochishda eng kam ish haqining bir baravarigacha haq to‘lanadi.

3 - AMALIY MASHG'ULOT

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 20-avgustdag'i "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi 357 - sonli qarori va shu qaror bilan tasdiqlangan "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to'g'risida NIZOM"ga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu qarorda barcha kelishib olish tartibotlari tadbirkorlik subyektlarini amaldagi qonun hujjatlariga rioya qilgan holda ro'yxatdan o'tkazadigan faqat bitta tashkilot doirasida amalga oshirilishi belgilab berilgan.

Tuman (shahar) hokimliklari huzurida tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalari tashkil etilgan bo'lib, ularning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

1. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishni mo'ljallayotgan ariza beruvchining hujjatlarini hamda buning uchun zarur bo'lgan asoslarni qabul qilish va ekspertizadan o'tkazish;
2. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida muhandislik- kommunikatsiyalariga (gaz, energiya, suv, kanalizatsiya, issiqlik bilan ta'minlash, telefon aloqasi tarmoqlari) ulanish, turarjoylarni noturarjoy toifasiga o'tkazish, obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilishga texnik shartlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirish, shuningdek, muhr va shtamp tayyorlashga ruxsatnomaga olish uchun ularning vakolatlari doirasida majburiy tartibda kelishiladigan va ruxsat olinadigan tegishli tashkilotlarni aniqlash;
3. Yuqorida ko'rsatilgan ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirishni hisobga olgan holda tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, reyestrni yuritish, shuningdek, ularni soliq va statistika organlarida hisobga quyish;
4. ariza beruvchiga barcha ruxsat beruvchi hujjatlar bilan uning tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma berish.

Tadbirkorlik subyektlarini ariza berilgan sanadan boshlab ruxsat beruvchi hujjatlarni bergen holda davlat ro'yxatidan o'tkazishgacha

bo‘lgan muddat texnik shartlar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirishning murakkabligini va hajmini hisobga olib, 7 ish kunidan bir oygacha belgilanadi.

Davlat soliq va statistika organlarida hisobga qo‘yish bilan bir vaqtda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish:


- auditorlik va sug‘urta tashkilotlari, birjalar, shuningdek, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar va Toshkent shahrida tashkil etiladigan bozorlar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tashkilot – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan;

- horijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar hamda tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda tashkil etiladigan bozorlar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tashkilotlar – Qoraqalporiston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar adliya boshqarmalari tomonidan;

- barcha tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan, horijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar – tumanlar va shaharlar hokimliklari huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish inspeksiyalari (keyingi o‘rinlarda matnda inspeksiya deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri joylardagi statistika organlari tomonidan to‘ldiriladigan ro‘yxatdan o‘tkazish kartalari asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan yuritiladi.

Quyida keltirilgan 2- rasmlarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish bo‘yicha hujjatlar tizimi keltirilgan.



2-rasm. Tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish muddatlari

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan shaxslarga davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni tayyorlashda yordam berishlari mumkin.

Muassislarining o‘zi tomonidan tayyorlanishi

Muassislarining ixtiyoriga ko‘ra shartnoma asosida

Konsalting firmalari

Savdo-sanoat palatasi huzuridagi axborot markazlari

Boshqa shaxslar

3-rasm.Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan shaxslarga davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni tayyorlashda yordam berishlari

"qonun hujjatlariga muvofiq o‘zlariga tegishli bo‘lgan mol-mulkka egalik qilish,
foydalanimish va uni tasarruf etish

Mustaqil ravishda ishlab chiqarish dasturini shakllantirish, maxsulot yetkazib
beruvchilarining va o‘z mahsulotlarining iste’molchilarini tanlash.

Tadbirkorlik faoliyatidan cheklanmagan miqdorda daromad olish va uni o‘z ixtiyoriga
ko‘ra

O‘z mahsulotini ishlab chiqish , chiqindilarni bozor konyunkturasidan kelib chiqib
mustaqil ravishda belgilanadigan narxlari shartnoma asosida realizatsiya qilish

Binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa mol-mulkni olish yoki ijara olish, shu jumladan,
lizing yo‘li bilan

Belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish

4-rasm. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari

Horijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalaruchun eng kam oylik ish haqining besh baravari, uningdek 500 AQSh dollari.

Ustav fondi to'liq horijiy investorlar tomonidan shakllantiriladigan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun 200 AQSH dollari.

Sug'urta va auditorlik tashkilotlari, birjalar va bozorlar uchun eng kam oylik ish haqining 4 baravari miqdorida davlat boji to'lanadi.

5-rasm. Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun qancha miqdorda davlat boji to'lanadi

1. Davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi ariza .
2. Ta'sis hujjatlarning notarial tasdiqlangan asl ikki nusxasi.
3. Davlat boji yoki ro'yxatdan o'tkazish yig'imning belgilangan miqdori to'langanligi to'g'risida bank hujjati.
4. Muxr va shtamp eskizlari –uch nusxada
5. Tadbirkorlik subyektlari pochta manzilini tasdiqlovchi hujjatlar

6-rasm. Fermer xo'jaligini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun qanday hujjatlar taqdim etish kerak.

Davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi ariza

Ta'sis hujjatlarining notarial tasdiqlangan asl ikki nusxasi

Ro'yxatdan o'tkazish yig'imi to'langanligi to'g'risida hujjat

Firma nomi to'g'risida statistika organlaridan berilgan guvohnoma

Muxr va shtamp eskizlari - uch nusxada

Tuman hokimining yer uchastkasini berish to'g'risidagi qarori

7-rasm. Tadbirkorlik subyektlari yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun qanday hujjatlarni taqdim etishlari lozim.


Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risidagi ariza

Dehqon xo‘jaligi nizomining notarial tasdiqlangan asl ikki nusxasi

Tuman hokimining yer uchastkasini berish to‘g‘risidagi qarori

Belgilangan tartibda shahar statistika organlari tomonidan berilgan firma nomi to‘g‘risida guvohnoma

8-rasm. Dehqon xo‘jaligini tashkil uchun qanday hujjatlar taqdim etish kerak.



9-rasm.Yakka tartibdagi tadbirkorlar, davlat ro‘yxatidan o‘tishlari uchun qanday hujjatlarni taqdim etishlari kerak

Ruxsat beruvchi hujjatlar rasmiylashtirilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, unga qo‘sishmcha ilova tariqasida

Muhandislik kommunikasiya tarmoqlariga ularish uchun texnik shartlar

Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i

10-rasm. Tadbirkorlik subyektlari davlat ro‘yxatidan o‘tgach, ularga beriladigan hujjatlar

Qayta ixtisoslashtirish yoki rekonstruksiya qilish uchun ruxsatnomalarini

Kadastr guvohnomasi

Yer uchastkasiga egalik huquqi ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma

Turar joyni noturar toifasiga o‘tkazish uchun ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirishda tumanlardagi tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish

Ariza

Ariza beruvchining mavjud binoga bo‘lgan mulkiy yoki ashyoviy huquqlarini tasdiqlovchi hujjat nusxasi

Texnik ro‘yxatdan o‘tkazish kadastr byurosi tomonidan tayyorlangan bino narxi

Binoga egalik qiluvchilar va oilaning voyaga yetmagan a’zolarining turar joyni noturar joy toifasiga o‘tkazish uchun notarial tasdiqlangan yozma ravishdagi roziligi

11-rasm.Turar joyni noturar joy toifasiga o‘tkazish tartibi

Ariza	Tadbirkorlik subyektini boshqarishga vakolatli organning qarori	O'zgartirish va qo'shimchalar tadbirkorlik subyektining muhri bilan tasdiqlangan holda, 2 nusxada	Davlat boji yoki ro'yxatdan o'tkazish yig'imi to'langanligi to'g'risida bank hujjati	Ustav fondi ko'paytirilgan taqdirda joriy ustav fondi shakllantirilganligi to'g'risida soliq organlari tomonidan berilgan hujjat
-------	-----------------------------------------------------------------	---------------------------------------------------------------------------------------------------	--------------------------------------------------------------------------------------	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

12-rasm Ta'sis hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda tegishli tartibda rasmiylashtirili, 1 hafta muddatda ularni ro'yxatdan o'tgazgan organga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi

Ariza	Ta'sis	Pochta manzilini tasdiqlovchi hujjat
Savdo reyestridan ko'chirma	Muhr va shtamp eskizlari	Mol-mulkini qabul qilib olish dalolatnomasi
Bank tavsiya xati	Ustav fondining 30% to'langanligini tasdiqlovchi bank hujjati	O'zbekiston Respublikasida hududiga mol-mulk olib kelinganligini tasdiqlovchi bojxona hujjati
	Mol-mulkka egalik huquqini tasdiqlovchi hujjat	Mol-mulkini qabul qilib olish dalolatnomasi

13-rasm. Horijiy qo'shimcha korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun adliya boshqarmalariga quyidagi hujjatlarni yig'ib taqdim etish zarur.

O‘zbekistonda 2014-yil 1-yanvardan tadbirkorlik subyektlari internet orqali davlat ro‘yxatidan o‘tkazish mexanizmi joriy etiladi. UzDaiLy. Uz xabariga ko‘ra, O‘zbekiston hukumati 25-noyabr kuni bu haqdagi qarorni imzolagan.

Hujjat tadbirkorlik subk'etlari uchun qulay shart-sharoitlarni tashkil etish, shuningdek, ro‘xatga olish jarayonlarni elektron tizimga o‘tkazishni ta'minlash maqsadida qabul qilingan.

Qarorga ko‘ra, tadbirkorlik subyektlari yagona davlat xizmatlari interaktiv portali vositasida, ta’sis hujjatlarni namunaviy shakli asosida masofadan turib va interaktiv usulda rasmiylashtirish orqali, ro‘yxatdan elektron ko‘rinishda o‘tkaziladi.

Tadbirkorlik subyektini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun tegishli ilovalar bilan elektron ariza berish, shuningdek, davlat ro‘yxatidan o‘tganligi to‘g‘risidagi guvohnoma va boshqa ta’sis hujjatlarni elektron ko‘rinishda olish uchun elektron raqamli imzo bo‘lishi kerak. Ayni vaqtida, elektron ro‘yxatga olish kredit tashkilotlariga nisbatan qo‘llanilmaydi.

MUSTAQIL ISHLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish deganda nimani tushunasiz?
2. Yakka tadbirkorlikni davlat ro‘yhatidan o‘tkazishda qanday hujjatlar talab etildi?
3. Biznes- rejani mohiyati va mazmuni nimadan iborat?
4. Biznes- reja qanday tayyorlanadi va undan qanday foydalanish mumkin?
5. Biznes- rejaning asosiy bulimlarini mazmuni nimadan iborat?

TEST TOPSHIRIQLARI

1. “Kichik va xususiy” tadbirkorlikni rivojlantirishni rag’batlantirish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining qonuni qachon qabul qilingan?

- A. 1991- yil 15- fevral;
- B. 1995- yil 21- dekabr;
- C. 1998- yil 29- avgust;
- D. 1998- yil 9- aprel.

2. “Kichik va xususiy” tadbirkorlikni rivojlantirishni rag’batlantirish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining qonuniga kiritilgan o‘zgarish vaqtি qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

- A. 1991- yil 15- fevral;
- B. 1995- yil 21- dekabr;
- C. 1998- yil 29- avgust;
- D. 1998- yil 9- aprel.

3. Quyida qayd qilingan pul topish yo‘llarining qaysi biri tadbirkorlikka kirmaydi?

- A. yollanib ishslash orqali pul topish;
- B. yerni ijaraga berib, renta orqali pul topish ;
- C. pulni bankka qo‘yib, foiz orqali pul topish;
- D. hamma javoblar to‘g‘ri.

4. Quyida qayd qilingan javoblarning qaysi biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning afzalliklari hisoblanadi?

- A. moslashuvchanlik va tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyati;
- B. mahalliy shart-sharoitlarga tez ko‘nikma hosil qilish;

- C. tezlik bilan moddiy yutuqqa erishish imkoniyati;
- D. hamma javoblar to‘g‘ri.

5. Quyida qayd qilingan javoblarning qaysi biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning kamchiliklariga taalluqli?

- A. tadbirkorning yakka javobgar ekanligi;
- B. bir necha kasbni qo‘shib olib borish imkoniyati;
- C. mehnat resurslarining kamroq jalb qilinishi;
- D. moslashuvchanlik imkoniyati.

TADBIRKORLAR UCHUN ESLATMA

O‘zbekistonda 2014-yil 1-yanvardan tadbirkorlik subyektlari internet orqali davlat ro‘yxatidan o‘tkazish mexanizmi joriy etiladi. UzDaiLy. Uz xabariga ko‘ra, O‘zbekiston hukumati 25- noyabr kuni bu xaqdagi qarorni imzolagan.

Hujjat tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlarni tashkil etish, shuningdek, ro‘xatga olish jarayonlarni elektron tizimga o‘tkazishni ta’minlash maqsadida qabul qilingan.

Qarorga ko‘ra, tadbirkorlik subyektlari yagona davlat xizmatlari interaktiv portali vositasida, ta’sis hujjatlarni namunaviy shakli asosida masofadan turib va interaktiv usulda rasmiylashtirish orqali, ro‘yxatdan elektron ko‘rinishda o‘tkaziladi.

Tadbirkorlik subyektini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun tegishli ilovalar bilan elektron ariza berish, shuningdek, davlat ro‘yxatidan o‘tganligi to‘g‘risidagi guvoxnama va boshqa ta’sis hujjatlarni elektron ko‘rinishda olish uchun elektron raqamli imzo bo‘lishi kerak. Ayni vaqtida, elektron ro‘yxatga olish kredit tashkilotlariga nisbatan qo‘llanilmaydi.

4 - AMALIY MASHG'ULOT .

KICHIK TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH VA QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMI

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash zaruriyati davlatning oldiga *bir qator vazifalarni* qo'yadi:

1. *Huquqiy kafolatlar berish, himoyalash va tartibga solish vazifasi*

– tadbirkorlarning barqaror rivojlanishini hamda ularning boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan teng sharoitlarda faoliyat yuritishini ta'minlashga imkon beruvchi qonuniy-me'yoriy hujjatlarni qabul qilish hamda ularga rioya etilishi ustidan nazorat yuritishni nazarda tutadi.

2. *Rag'batlantirish vazifasi* – xususiy tadbirkorlik tashabbusi, adolatli raqobat kurashi hamda ularga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar faoliyatini turli iqtisodiy dastaklar yordamida rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash choralarini o'z ichiga oladi.

3. *Taqsimlash vazifasi* – ijtimoiyadolat va himoyalash vositasi sifatida daromadlarni qayta taqsimlash, shuningdek, tadbirkorlarning moddiy-texnik resurslardan imtiyozli asoslarda foydalanishiga sharoit yaratish maqsadida resurslar taqsimotiga tuzatishlar kiritish bilan bog'liq.

4. *Axborot-maslahat ta'minoti vazifasi* – tadbirkorlarning axborot ta'minoti tizimidan teng sharoitlarda, to'siqlarsiz foydalanish imkoniyatini yaratish, ular uchun iqtisodiy muammolarning samarali yechimini topish, xomashyo va resurslar ta'minoti, ilg'or texnika va texnologiyalarni qo'llash yuzasidan maslahatlar berishni nazarda tutadi.

5. *Ijtimoiy kafolatlash vazifasi* – ijtimoiy ta'minot va himoyalashning samarali tizimini yaratish, shuningdek, tadbirkorlarning ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniy tadbirlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

6. *Tashqi iqtisodiy faoliyatni muqobillashtirish vazifasi* – xalqaro bozorlarda tadbirkorlarning manfaatlarini himoyalash, imtiyozli bojxona tariflari va soliqlar orqali eksport uchun qulay iqtisodiy muhit hosil qilish tadbirlaridan iborat.

Davlat tadbirkorlik subyektlari faoliyatini respublikada amalda bo'lgan qonunchilik doirasida tartibga solib turadi. Bu, birinchi navbatda, ularni tashkil etish va faoliyat ko'rsatishi bo'yicha qoidalarni belgilash, yerdan foydalanish, mehnat, mol-mulk va boshqa munosabatlarni tartibga

solist hamda buxgalteriya, soliq va statistika hisobotlarini yuritish tartiblarini joriy etish va boshqalarni nazarda tutadi.

O‘zbekistonda kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- tadbirkorlarning ishbilarmonlik faolligini oshirish, fuqarolarning tadbirkorlik faoliyati bilan erkin shug‘ullanishlari va undan manfaatdorligining kafolatli tizimini yaratish hamda ularning qonuniy huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilish;

- kichik biznes korxonalari yaratilishi va faoliyatining me’yoriy-huquqiy negizini takomillashtirish;

- kichik tadbirkorlik korxonalarning kredit manbalari va sarmoyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

- tadbirkorlik xatarlaridan barqaror himoyalanishni ta’minalash uchun sug‘urta tizimining ahamiyatini oshirish;

1. tadbirkorlik sohasiga investitsiyalarni (shu jumladan, chet el investitsiyalarini), zamонавиу texnologiyalar va uskunalarni jalb etish;

- kichik tadbirkorlikka xizmat ko‘rsatuvchi bozor infratuzilmalarini kengaytirish va rivojlantirish;

- kichik korxonalarning xomashyo, axborotlar va texnologiyalardan erkin va to‘sqliarsiz foydalanish imkoniyatini kengaytirish, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotni ichki va tashqi bozorlarda sotish tizimini takomillashtirish;

- kichik tadbirkorlik faoliyati ko‘rsatkichlarining buxgalterlik hisobi va tahlili tizimini takomillashtirish, ular uchun davlat statistika, buxgalteriya va soliq hisobotining soddalashtirilgan tartibini joriy etish;

2. tadbirkorlik faoliyati subyektlari samarali faoliyat yuritishi uchun ularni zaruriy iqtisodiy, statistik, ishlab chiqarish-texnologik, ilmiy-texnik va boshqa xil axborotlar bilan ta’minalash;

3. soliqlar, yig‘imlar va tariflar buyicha imtiyozlar belgilash.

- kichik va o‘rta biznes uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish va boshqalar.

Davlatning tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishni tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash sohasidagi faoliyati ma’lum bir **shakllar hamda usullar asosida** olib boriladi. Davlat tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga **ma’muriy, iqtisodiy yoki institutsional usullar** yordamida **bevosita yoki bilvosita** ta’sir o‘tkazadi (7-rasm).

Davlat tadbirkorlik subyektlari faoliyatini ***ma'muriy usullar*** yordamida tartibga solsa, ***iqtisodiy*** yoki ***institutsional*** usullar yordamida ularni qo'llab-quvvatlash choralarini amalga oshiradi.

Ma'muriy usullar yordamida xususiy mulk va tadbirkorlik erkinligi daxlsizligini himoyalash va kafolatlar berish, monopoliyani cheklash va halol raqobatni muhofaza qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash, davlat tomonidan qabul qilingan huquqiy-me'oriy tartiblarga rioya etilishini nazorat etish kabi muhim tadbirlarni amalga oshirish ta'minlanadi.

Iqtisodiy usullar yordamida davlat bozor jarayonlarining rivojlanishini davlatning iqtisodiy siyosatiga mos yo'nalishga solish uchun ta'sir etish choralarini qo'llaydi. Iqtisodiy usullar yordamida kichik tadbirkorlikni tartibga solish va qo'llab-quvvatlash moliya, pul-kredit, soliq, bojxona, baho, sug'urta va boshqa dastaklar orqali ta'minlanadi.

Iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solishning ma'muriy usullari bozor xo'jaligining o'z-o'zini boshqarish mexanizmiga qarshilik qilsa, iqtisodiy usullar ulardan faol foydalanishni rag'batlantiradi.

Institutsional usullar kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlovchi davlat boshqaruvi organlari va turli institutsional tuzilmalarni (assosiatsiyalar, palatalar, jamg'armalar, savdo uylari, ilmiy-tadqiqot markazlari va boshqalar) shakllantirish va rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Iqtisodiy va institutsional usullar orqali tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash ko'proq ahamiyat kasb etib boraveradi. Chunki, ular tadbirkorlik va tanlov erkinligi, shaxsiy manfaatdorlik va raqobat muhitida tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini yuksaltirishda davlatning rag'batlantiruvchilik rolini yuzaga chiqaradi.

Davlatning iqtisodiy jarayonlarga ta'siri darajasiga ko'ra, tartibga solishning ***bevosita*** va ***bilvosita*** usullari mavjud.

Bevosita qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'ridan-to'g'ri tadbirkorlik subyektlariga yo'naltirilgan bo'ladi va ularning moddiy ahvolini yaxshilash hamda iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday chora-tadbirlar sirasiga soliqlar to'lashda yengilliklar joriy etish, imtiyozli shartlar va foizlarda kreditlar berish, davlat buyurtmasi bo'yicha harid qilinadigan mahsulotlarga kafillangan baholar belgilash, eksport-import operatsiyalarida qulay tariflar va to'lovlar o'rnatish kabi iqtisodiy dastaklar kiradi.

Ba'zan davlat tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratish va ularning samaradorligini oshirish maqsadida ***bilvosita qo'llab-quvvatlash*** choralarini ishga soladi. Bilvosita qo'llab-quvvatlashda davlat ma'lum bir sohalarda to'g'ridan-to'g'ri tadbirkorlik subyektlariga imtiyozlar yaratmasdan, balki ularga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar korxonalariga imtiyozlar yaratadi. Bundan asosiy maqsad ushbu korxonalarning tadbirkorlarga yetkazib berayotgan tovar-moddiy qiymatliklari hamda xizmatlarining narxini sezilarli darajada pasaytirish va pirovard natijada tadbirkorlik subyektlariga qulay iqtisodiy sharoitlar yaratib berishdir.

MUSTAQIL ISHLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning zarurati nimadan iborat?
2. Qanday dasturlar asosida kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimi amal qilmoqda?
3. Kichik va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab- quvvatlash tadbirlari qanday shakllarda amalga oshiriladi?
4. 2005-yil 16-iyundagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni mazmunini ifodalab bering.
5. Kichik biznesning afzalliklari nimalardan iborat?
6. Korxonalarning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab –quvvatlash turlarini aytib bering?
8. Xo'jalik yurituvchi subyektlarga litsenziya berish tartibi qanday?

Test topshiriqlari

1. Quyida qayd qilingan tadbirkorlik faoliyatining qaysi biriga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi litsenziya beradi?

- A. qimmatbaho metallari va noyob yer osti metallari bilan bog'liq faoliyatga;

- B. sovuq qurollar ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq faoliyatga;
- C. qimmatli qog‘ozlarni ishlab chiqarish bilan bog‘liq faoliyatga;
- D. farmakologik preparatlar ishlab chiqarish yoki sotish bilan bog‘liq faoliyatga.

2. Ish ko‘lamiga qarab korxonalar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- A. xususiy korxona;
- B. hissadorlik korxonalari;
- C. jamoa korxonalari;
- D. yirik korxonalar, o‘rta korxonalar, kichik korxonalar.

3. Shirkat firma deganda:

- A. ayrim shaxslarga qarashli bo‘lgan korxona tushuniladi;
- B. ayrim oilalarga qarashla bo‘lgan korxona tushuniladi;
- C. bir necha sohalarning mulkini birlashtirishga asoslangan korxona tushuniladi;
- D. davlat mulki va uning nazorati ostida ishlovchi korxona tushuniladi.

4. Quyida qayd qilinganlarning qaysi biri tadbirkorlik shakllariga taalluqli?

- A. yakka tartibdagi mehnat faoliyati;
- B. xususiy tadbirkorlik faoliyati;
- C. jamoa tarkibidagi mehnat faoliyati;
- D. yakka tartibdagi tadbirkorlik, xususiy tadbirkorlik, jamoa tadbirkorligi, aralash tadbirkorlik.

5. Yakka tadbirkorlik bu shunday faoliyatki, uning egasi butun daromad va tavakkalchilikni:

- A. to‘la o‘z zimmasiga oluvchi bir kishidir;
- B. to‘la o‘z zimmasiga oluvchi bir oiladir;
- C. to‘la o‘z zimmasiga oluvchi bir necha oiladir;
- D. hamma javoblar to‘g‘ri.

6. Kichik firmalar:

- A. kooperatsiyalashgan va ixtisoslashgan qismlar va detallar ishlab chiqarish asosida faoliyat ko‘rsatadi;
- B. asosan iste’mol buyumlari ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi;
- C. umumiy texnologik va texnik infratuzilma sohasida faoliyat ko‘rsatadi;
- D. asosan savdo – sotiq bilan shug‘ullanadi.

7. Quyida qayd qilingan tadbirkorlik faoliyatining qaysi biriga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi litsenziya beradi?

- A. qimmatbaho metallari va noyob yer osti metallari bilan bog‘liq faoliyatga;
- B.sovuq qurollar ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq faoliyatga;
- C. qimatli qog‘ozlarni ishlab chiqarish bilan bog‘liq faoliyatga;
- D. farmokologik preparatlar ishlab chiqarish yoki sotish bilan bog‘liq faoliyatga.

TADBIRKLAR UCHUN ESLATMA

Biznes yuritish sharoitlarini baholashning xalqaro amaliyotda qabul qilingan mezonlari tizimini joriy etish va shu asosda mamlakatimizning xalqaro reytingini yanada oshirish bo‘yicha keng chora-tadbirlar kompleksi qabul qilingani o‘z samarasini berayotir. Davlatimiz rahbarining joriy yil 7-aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni bu xayrli ishlarning uzviy davomi bo‘ldi.

Farmonga muvofiq, 2014-2015 yillarda iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni rag‘batlantirish samaradorligini oshirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Unga ko‘ra, davlat va xo‘jlik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari zimmasiga o‘zlarining rasmiy veb-saytlarida tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro munosabatlar masalalarini tartibga soluvchi axborotlarni joylashtirish va ularni doimiy ravishda yangilab borish vazifasi yuklatildi. Bu tadbirkorlik subyektlariga kerakli barcha ma’lumotlarni tegishli tashkilotning rasmiy veb-saytidan tezkorlik bilan olish va o‘z faoliyatida foydalanishga ko‘maklashmoqda.

2014-yil 1-iyundan boshlab mutasaddi organlarning veb-saytlarida e’lon qilinmagan me’yoriy-huquqiy va boshqa hujjalarning talablarini buzish holatlari uchun tadbirkorlarga javobgarlik choralarini qo’llash taqiqlandi.

Bundan tashqari, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonini murakkablashtirishni va tadbirkorlik subyektlariga yangi yuridik majburiyatlar yuklatishni nazarda tutadigan, shuningdek tadbirkorlik subyektlariga yuridik javobgarlikning yangi choralarini belgilaydigan me’yoriy-huquqiy hujjalalar rasman chop etilgan, uch oydan keyin kuchga kiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Xodiyev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N., Muxiddinova U.S. Kichik biznesni boshqarish. –T.: O‘qituvchi, 2003.
2. Xodiyev B.Yu. va boshqalar. Kichik tadbirkorlik asoslari(o‘quv-amaliy qo‘llanma)-T.:yeH. TeMPUS “Konsaudit”, 2004.
- 3.Rambler-<http://www/rambler, ru/>;
4. www.gov.uz.
- 5.www.ziyo.edu.uz

MUNDARIJA

- 1. 1 - AMALIY MASHG'ULOT. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI** 3
 - 2. 2 - AMALIY MASHG'ULOT. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINING TURLARI VA SHAKLLARI** 8
 - 3. 3 - AMALIY MASHG'ULOT. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH** 26
 - 4. 4 - AMALIY MASHG'ULOT. KICHIK TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH VA QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMI
ADABIYOTLAR RO'YXATI** 36
- 44**

Muharrir Sidikova K.A.

Musahhih Adilxodjayeva SH.

